



CHILANGARLIK ISHLARINING TASHKILIY ASOSLARI

Yakubov Inom Daniyarovich

Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lif kafedrasi dotsenti,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: yaid_87@mail.ru, +998933098877

Xomidova Feruzaxon Mirodiljon qizi

Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lif kafedrasi 1-bosqich talabasi
E-mail: xomidovaferuzaxon523@gmail.com, +998976639200

ANNOTATSIYA

Chilangarlik o'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar va ularni o'rganish hamda mehnat unumini va ish sifatini oshirish maqsadlarida ulardan o'z ishida amaliy foydalanashni o'rganish.

Kalit so'zlar: chilangarlik bolg'achalari; shtangensirkullar; mikrometrlar; burchakliklar; zubilolar; kreysmeysellor; chizg'ichlar.

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ СЛЕСАРНОГО РАБОТЫ**Якубов Ином Даниярович**

Доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент кафедры технологического образования Ферганского государственного университета
E-mail: yaid_87@mail.ru, +998933098877

Хомидова Ферузахон Миродилжон қизи

Студентка 1 курса по направлению технологического образования
Ферганского государственного университета
E-mail: xomidovaferuzaxon523@gmail.com, +998976639200

АННОТАЦИЯ

Работы, выполняемые в слесарной мастерской, а также изучать их и учиться использовать в своей работе в целях повышения производительности и качества труда.

Ключевые слова: слесарные молотки; круги со штангой; микрометры; углы; забулы; крейсмайзель; линейка.

ORGANIZATIONAL FUNDAMENTALS OF LOCKSMITH WORKS**Yakubov Inom**

Doctor of Philosophy in Technical Sciences (PhD), Associate Professor of
Technological Education Department of Fergana State University
E-mail: yaid_87@mail.ru, +998933098877

Xomidova Feruzakhan

Student of 1 course in the direction of technological education
Fergana State University
E-mail: xomidovaferuzaxon523@gmail.com, +998976639200





ABSTRACT

Work performed in a locksmith workshop, as well as study them and learn to use them in your work in order to increase productivity and quality of work.

Key words: locksmith's hammers; circles with a barbell; micrometers; corners; forgotten; Kreismeisel; ruler.

KIRISH

Chilangarlik o'quv ustaxonasida bajariladigan ishlar va ularni o'rganishdan ko'zlangan maqsad. Chilangarlik kasbi, chilangarlik o'quv ustaxonasida rioya qilinadigan xavfsizlik texnikasi va sanitariya gigiena qoidalari asoslari, chilangarlik asbob va moslamalaridan namunalar, texnologik haritalar, o'lchash vositalari, plakatlar, o'lchash namunalari bilan tanishtiriladi. O'quv ustaxonalarida olib boriladigan chilangarlik ishlari kompleks xarakterga ega bo'lib, ularni o'rgatishdan ko'zlangan maqsad: 1) talabalarni barcha turdag'i chilangarlik ishlari bilan tanishtirish, ularga asosiy chilangarlik ish usullarini o'rgatish, ularning rejlash, qirqish, arralash, egovlash, parmalash, parchinlash, rezba qirqish, egish, bukish, to'g'irlash, kavsharlash va boshqa operatsiyalarni belgilangan texnikaviy talablarga moslab bajarishlariga erishish. 2) talabalarni turli chilangarlik ishlarini bajarishda ishlatiladigan asbob-uskuna va moslamalarning tuzilishi hamda ishlash prinsiplari bilan tanishtirish, ularni ishga sozlay olishga, metallarga ishlov berishda hozirgi zamon mehnat qurollaridan samarali foydalana olishga o'rgatish. 3) talabalarni ishlov beriladigan metall materiallarning xossasi va xususiyatlarini bir-biridan farq qilgan holda to'g'ri tanlashga o'rgatish. 4) talabalarni biror-bir detal tayyorlashda, ishning ko'zini bilgan holda, qo'l mehnatini yengillashtirishga imkon beradigan moslama, mexanizm, stanoklardan o'rinli va unumli foydalanishga, ratsional usullarni qo'llashga o'rgatish; 5) talabalarga qo'l va mexanizmlar yordamida bajariladigan ishlardagi asosiy operatsiyalarni bajarish usullarini namoyish qilish bilan birga chilangarlik ishlarini o'qitish va o'rgatishda qo'llaniladigan metodlarni va o'quvchilarning ijodkorlik ishlariga rahbarlik qilishni o'rgatish. 6) talabalarda ishlarni texnikaviy hujjatlar asosida bajarish borasida yetarli ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan ularni turli operatsiyalar va ishlarga doir instruksion hamda texnologik haritalar tuzishni, detal va buyumlarning ish chizmalarini chizishga o'rgatish. 7) talabalarning bajargan ishlarini turli nazorat - o'lchov asboblardan, kalibrlardan foydalanib tekshirish va baholash bilan ularni o'quvchilar ishini to'g'ri tekshirishga va baholashga o'rgatish. 8) talabalarga II-III razryadli chilangarga nisbatan qo'yiladigan talabga javob beradigan kompleks ishlarni mustaqil bajarishga o'rgatish. 9) talabalarning o'rta umumta'lim maktablari, o'quv ishlab chiqarish texnika bilim yurtlari o'quv ustaxonalarida chilangarlik ishlarini to'g'ri tashkil eta oladigan va o'rgata oladigan malakali o'qituvchi kadrlar bo'lib yetishishlarini ta'minlashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARXI

Uzoq davrlar davomida metallardan turli buyumlar tayyorlash ishi bilan xunarmand-temirchilar shug'ullanib keldilar. Dastlab bu hunarmandlar turli xil metall buyumlarni qo'l yordamida tayyorlab kelganlar. Keyinchalik har xil ish moslamalarning paydo bo'lishi, ishlab chiqarish quollarining takomillashishi orqasida temirchilik hunari taraqqiy etib, hunarmand-temirchilar o'rtasida mehnat taqsimoti





vujudga keldi. Ba'zi temirchilar yirik va dag'al ishlarni, masalan, mehnat qurollari, ro'zg'or anjomlari va boshqalarni tayyorlasa, boshqalari mayda va nozik ishlarni bajaradigan bo'ldilar. Bir necha yuz yillar burun ham kishilar metallarni sovuqlayin ishslash, ularni qirqish san'atini yaxshi egallaganlar. O'sha vaqtlardayoq metallarni qizdirib va sovuqlayin ishlovchi hunarmandlar ajralib chiqqa boshlagan. Metallarga qizdirib ishlov beruvchi hunarmandlar temirchilar deb, sovuqlayin ishlov beruvchi hunarmandlar chilangarlar (slesarlar) deb farqlanadigan bo'ldi. Shunday qilib, chilangarlik mustaqil hunar sifatida temirchilikdan ajralib chiqdi va umumiy texnika taraqqiyoti bilan birgalikda taraqqiy etib kelmoqda. Ishlab chiqarish tarmog'i va unda bajariladigan ish turlariga qarab chilangarlik kasbi quyidagi ixtisosliklarga bo'linadi: sozlovchi chilangarlar, yig'uvchi chilangarlar, asbobsoz chilangarlar, remontchi chilangarlar, santexnika chilangarlari, andozachi chilangarlar, tunukasoz, misgar, qulfgar, qalaylovchi, kavsharlovchi va boshqa ixtisos chilangarlar. Talabalarni yuqorida aytib o'tilgan chilangarlikka oid kasblar bilan tanishtirish, bu haqdagi tushunchalarni kengaytirish, mehnat malakalari bilan qurollantirish va kasblarga tayyorlash ishlari chilangarlik o'quv-ustaxonalarida, zavodlarda, ta'mirlash ustaxonalarida, turli ishlab chiqarish korxonalarida, shuningdek tashkil etilgan o'quv-ishlab chiqarish sexlarida olib boriladi. Masalan, sozlovchi-chilangar kasbi bilan asbobsozlik, avtomobilsozlik, traktorsozlik, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, motorsozlik, stanoksozlik, to'qimachilik mashinasozligi, avto-ta'mirlash kabi zavodlarda tanishish mumkin. Chilangarlik ishlarni bilish faqat chilangarlarga emas, balki qishloq xo'jaligi va qurilish mexanizatorlari, har xil mashinalarni boshqaruvchi kishilar, xaydovchilar, montyorlarga ham foydasi tegadi, chunki keng qamrovli traktorchi-mashinistlar, kombayenchilar bilan birga, bu mashinalarni sozlay olishi, texnikaviy xizmat ko'rsatishiga oid barcha operatsiyalarni bilishlari ,turli chilangarlik ta'mirlash ishlarni, ta'mirlash ishlarni bajarishlari lozim.

NATIJALAR TAXLILI.

Chilangarlik ishlari metallarni rejalash, qirqish, arralash, egovlash, pardozlash, parmalash, parchinlash, rezba qirqish, kavsharlash, qalay yugurtirish, egish, bukish, to'g'irlash va shu kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Ish o'rnida ozodalik va tartibga rioya qilish lozim. Ish kuni mobaynida mehnat qilish va hordiq chiqarish rejimiga rioya qilish kerak. Buning uchun har smenada 5-10 minutlik tanaffus qilish va bu tanaffuslardan ishlab chiqarish gimnastikasi uchun foydalanish tavsiya qilinadi. Mehnatni muhofaza qilishning tarkibiy elementlaridan biri xavfsizlik texnikasıdır. Uning vazifasi mehnat unumdarligini pasaytirmagan holda mehnat xavfsizligi va zararsizligini ta'minlashdan iborat. Xavfsizlik texnikasi bo'yicha instruktajdan o'tmagan talabalarni ishlarni bajarishga qo'yish mumkin emas. Instruktajning o'tkazilishi maxsus jurnallar yoki kartochkalarga belgilab qo'yiladi. Xavfsizlik texnikasiga doir bilimlarni tekshirish natijalari haqida protokollar tuziladi. Chilangarlik ustaxonasi uchun ajratiladigan xonaga barcha ishlovchilarning soniga loyiq dastgohlar va boshqa jihozlar sig'ishi lozim. Ustaxonadagi jixozlar soz bo'lishi zarur. Stanina yoki korpusidan tashqaridagi barcha harakatlanadigan qismlarni to'siq, to'r va qopqoqlar bilan to'sish lozim. Yuklamalar ortib ketganida avariya va sinishlarning oldini olish uchun mashina va mexanizmlar elektr kalitlari, himoya va saqlash qurilmalari bilan



jihozlanadi. Agar xonaning o‘lchami bir kishiga 40 m³ havo to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, xonani oddiy shamollatib turish kifoya, agar xona bundan kichik bo‘lsa, majburiy shamollatish zarur. Shovqinlarning yo‘l qo‘yiladigan darajasi 75-85 db. Zarbsiz ishlaydigan mashinalar chiqaradigan o‘rtacha shovqinlar uchun yo‘l qo‘yiladigan daraja 85-90 db, sekin ishlaydigan agregatlar chiqaradigan past chastotalar uchun 90-100 db. Ish boshlashdan oldin yenglarning tugmalarini qadab qo‘yish, kiyimning etaklari yoyilib yotmasligi, sochni bosh kiyimi ostiga yaxshi tiqib ishslash zarur. Dastgoh bikr va mustahkam konstruksiyali bo‘lib, ish paytida qimirlamasligi lozim.

XULOSA

Ish paytida qirindi zarralari, asboblarning singan papchalari sachrashi mumkin. Ishchini ulardan muhofazalash uchun ximoya to‘rlari o‘rnataladi. Ular kamida 0,8 m balandlikda bo‘lishi kerak. Ish boshlangunga qadar asbobning sozligini tekshirish lozim. Uning zarb beradigan va ish qismlarida pachoqlangan, uchgan, darz ketgan joylar bo‘lmasligi, o‘tkir quyruqli asboblarning dastasi puhta mahkamlangan bo‘lishi, ularda nuqsonlar bo‘lmasligi kerak. Har xil chilangularlik operatsiyalarini bajarish paytida ularga oid xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish lozim. Charxlash dastgohoda texnika xavfsizligi qoidalari jilvirlash doirasining to‘sig‘i bo‘lishi, doira bilan tirak oralig‘i 2-3 mm dan ko‘p bo‘lmasligi lozim. Asbobni charxlash paytida abraziv zarrachalari ko‘chib, atrofga sachrashi mumkin. Charxlovchi ximoya ko‘zoynaklarini taqib olishi kerak. Yerga ularash uchun elektr qurilmalarining metall qismlari po‘lat yoki mis sim bilan yerdagi metall buyumlarga ulanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh Shukhratov, R Milašius, I Yakubov, R Maksudov, A Djurayev // Determination of parameters of grates on rubber brackets of fiber material cleaners // International Journal of Engineering and Advanced Technology // 2019.№2.page4263-4270
2. Шухратов Ш, И.Якубов, Максудов Р.Х., Джураев А. // Development of effective design and substantiation of parameters of the cotton cleaner from large little // НамМТИ илмий-техника журнали // 2020.№4. page3-10
3. Ином Якубов, Шароф Шухратов, Рустам Мурадов // Новая конструкция рабочих агрегатов хлопкосепаратора и совершенствование приводных механизмов // Universum: технические науки // 2022.№7-2 (100) page54-59
4. Якубов Ином Даниярович, Шухратов Шароф Шухратович, Муродов Рустам Муродович // Пахта-тўқимачилик кластерларида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш мақсадида янги сепаратор ишлаб чиқиш // Халқаро анжуман маъruzalар тўплами // 2022.page101-105
5. Якубов Ином, Мурадов Рустам, Шухратов Шароф // Принцип работы и эффективность хлопкосепаратора новой конструкции // ishlab chiqarishning texnik, muhandislik va texnologik muammolarining innovatsion yechimlari mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjumanı materiallari to‘plami
6. Yakubov Inom Daniyarovich, Shuxratov Sharof Shuxratovich // Separator-tozalagich uskunasini takomillashtirish va uning ishslash prinsipi // FarDU ilmiy xabarlar // 2022 Maxsus son.page16-19

7. Yakubov Inom Daniyarovich, Shuxratov Sharof Shuxratovich // Qo‘zg‘aluvchan paxta tashish qurilmasini yaratish va uning tasnifi // FarDU ilmiy xabarlar // 2022 Maxsus son.page41-43
8. Ином Якубов, Шароф Шухратов, Рустам Мурадов, Равшан Максудов // Совершенствование оборудования сепаратор-очиститель и анализ его приводных механизмов // Universum: технические науки // 2023.№ 3(108)
9. I.D. Yakubov, Sh.Sh. Shuxratov, R.M. Muradov // Takomillashtirilgan paxta separatori vallarining burchak tezliklarini o‘zgarishi taxlili // ФарПИ илмий-техника журнали // 2023.№2.page56-61
10. И.Д.Якубов, Ш.Ш.Шухратов, Р.М.Мурадов // Сепаратор-тозалагич ускунасининг узатма механизmlарини тахлили // “Ilm-zakovatimiz – senga, ona-vatan!” respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari // 2023.page52-59
11. Якубов Ином, Шухратов Шароф // Создания подвижного устройства для транспортировки хлопка // Pedagogical sciences and teaching methods: a collection scientific works of the International scientific conference //Copenhagen:2023.page228-234
12. Мурадов Рустам, Шухратов Шароф, Якубов Ином, Казахов Сайдмухтар // Анализ научных исследований, проведенных по совершенствованию конструкции колкового барабана сепараторно-очистительного устройства // Universum: технические науки // 2023 № 9(114) page60-64
13. Inom Yakubov, Sharof Shukhratov, Rustam Murodov // Creation of a Mobile Device for Transportation of Cotton and Analysis of its Mobile Transmissions // AIP Conference Proceedings // Research Article | March 11 2024.page050007-1-050007